

O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 44 400,2 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar – 43 290,8 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 905,6 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 203,8 mlrd so'mni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (5 172,0 mlrd so'm), Kattaqo'rg'on (4 617,0 mlrd so'm), Bulung'ur (4 601,3 mlrd so'm), Payariq (3 801,8 mlrd so'm), Ishtixon (3 764,5 mlrd so'm) va Pastdarg'om (3 754,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (73,9 mlrd so'm), Samarqand shahri (279,7 mlrd so'm) va Nurobod tumanini (1 437,2 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Samarqand viloyati	44 400,2	104,4
Samarqand shahri.	279,7	102,3
Kattaqo'rg'on shahri	73,9	36,7
Oqdaryo tumani	2 558,6	108,0
Bulung'ur tumani	4 601,3	103,7
Jomboy tumani	2 826,3	106,2
Ishtixon tumani	3 764,5	103,2
Kattaqo'rg'on tumani	4 617,0	107,6
Qo'shrabot tumani	1 915,0	106,7
Narpay tumani	2 043,4	106,2
Payariq tumani	3 801,8	104,0
Patdarg'om tumani	3 754,7	103,1
Paxtachi tumani	1 895,9	102,2
Samarqand tumani	2 275,9	104,8
Nurobod tumani	1 437,2	105,8
Urgut tumani	5 172,0	104,3
Toyloq tumani	3 383,0	102,5

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Oqdaryo (108,0 %), Kattaqo'rg'on (107,6 %), Qo'shrabot (106,7 %), Narpay (106,2 %) va Jomboy (106,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Kattaqo'rg'on shahar (36,7 %), Toyloq (102,5 %), Paxtachi (102,2 %), Samarqand shahar (102,3 %) va Pastdarg'om (103,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 44 400,2 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 20 634,5 mlrd so'mni (106,7 %), chorvachilik mahsulotlari 22 298,7 mlrd so'mni (100,4 %) tashkil qildi.


Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urgut (5 106,4 mlrd so'm), Kattaqo'rg'on (4 504,6 mlrd so'm), Bulung'ur (4 470,9 mlrd so'm) va Payariq (3 749,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (73,7 mlrd so'm), Samarqand shahri (248,7 mlrd so'm) va Nurobod tumani (1 409,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Oqdaryo (107,7 %), Kattaqo'rg'on (107,4 %), Narpay (106,4 %) va Qo'shrabot (106,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Kattaqo'rg'on shahri (34,4 %), Samarqand shahri (101,5 %) va Toyloq (101,6 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 61,3 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 35,7 % fermer xo'jaliklariga, 3,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urgut (2 619,7 mlrd so'm), Toyloq (1 789,3 mlrd so'm), Pastdarg'om (1 786,0 mlrd so'm), Ishtixon (1 775,9 mlrd so'm) va Payariq (1 698,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (64,8 mlrd so'm), Samarqand shahri (215,3 mlrd so'm) va Narpay tumani (854,9 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Jomboy (105,6 %), Samarqand (105,4 %), Urgut (104,1 %), Pastdarg'om (104,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Kattaqo'rg'on shahri (32,8 %), Kattaqo'rg'on (97,7 %), Qo'shrabot (98,8 %) va Samarqand shahri (100,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 245,0 ming tonna go'sht, 1 093,2 ming tonna sut, 1 144,3 mln dona tuxum, 2 990 tonna qirqib olingan jun, 23,5 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 7,7 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni, sog'ib olingan sut – 100,4 % ni, olingan tuxum – 105,7 % ni, olingan qorako'l teri – 102,3 % ni hamda ovlangan baliqlar – 109,0 % ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 15,9 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 78,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 10,0 % fermer xo'jaliklari, 89,7 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,3 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2025-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-mart 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	245,0	101,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	39,0	104,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	192,3	99,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	13,7	141,2
Sut, ming tonna	1 093,2	100,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	108,8	110,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	980,8	99,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,6	122,7
Tuxum, mln dona	1 144,3	105,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	405,8	114,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	506,4	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	232,1	103,0
Jun, tonna	2 990	100,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	198	101,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 606	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	186	94,9
Qorako'l teri, ming dona	23,5	102,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,7	109,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	13,5	103,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,3	100,7
Baliq, ming tonna	7,7	109,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6,6	101,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,0	108,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,1	2,1m

Shu bilan birga, olingan tuxumning 35,5 % fermer xo'jaliklariga, 44,3 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 20,2 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 6,6 % fermer xo'jaliklariga, 87,2 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,2 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 2,8 % fermer xo'jaliklariga, 57,6 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 39,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 85,7 % fermer xo'jaliklariga, 0,4 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 13,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi

	<i>Go'sht</i> <i>(tirik vaznda),</i> <i>tonna</i>	<i>Sut,</i> <i>tonna</i>	<i>Tuxum,</i> <i>ming dona</i>
Samarqand viloyati	244 965,0	1 093 245,0	1 144 261,0
Samarqand shahri	2 080,6	6 079,1	54 204,6
Kattaqo'rg'on shahri	787,2	2 039,3	377,5
Oqdaryo tumani	8 781,0	66 076,4	48 749,1
Bulung'ur tumani	17 945,3	66 399,3	68 073,9
Jomboy tumani	10 975,4	80 972,9	91 321,8
Ishtixon tumani	17 328,3	98 252,0	81 080,1
Kattaqo'rg'on tumani	36 289,5	106 829,4	62 619,9
Qo'shrabot tumani	13 630,7	53 371,6	33 722,4
Narpay tumani	6 990,9	63 630,5	35 565,8
Payariq tumani	14 690,3	113 412,5	56 084,5
Patdarg'om tumani	17 820,8	110 285,5	69 700,8
Paxtachi tumani	10 837,0	56 170,6	31 732,1
Samarqand tumani	16 524,6	42 986,1	361 913
Nurobod tumani	14 076,2	38 437,2	32 442,3
Urgut tumani	28 610,9	110 409,0	66 587,5
Toyloq tumani	27 596,3	77 893,6	50 085,7

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Bulung'ur (2 833,1 mlrd so'm), Urgut (2 486,7 mlrd so'm), Payariq (2 051,2 mlrd so'm), Ishtixon (1 941,0 mlrd so'm) va Pastdarg'om (1 873,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (9,0 mlrd so'm), Samarqand shahri (33,5 mlrd so'm) va Nurobod tumani (298,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Kattaqo'rg'on (128,9 %), Nurobod (117,3 %) tumanlari, Qo'shrabot (115,7 %), Oqdaryo (111,4 %) va Narpay (111,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Pastdarg'om (101,5 %), Toyloq (102,9 %), Samarqand (103,8 %) va Bulung'ur (103,9 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	1 408 575,0	106,9
Samarqand shahri.	3 987,1	101,4
Kattaqo'rg'on shahri	625,5	147,9
Oqdaryo tumani	83 013,6	105,6
Bulung'ur tumani	311 997,1	100,2
Jomboy tumani	110 938,9	102,7
Ishtixon tumani	45 379,3	103,1
Kattaqo'rg'on tumani	135 414,8	176,8
Qo'shrabot tumani	14 604,4	105,6
Narpay tumani	67 407,6	102,2
Payariq tumani	133 013,6	100,8
Patdarg'om tumani	111 489,2	107,6
Paxtachi tumani	46 332,5	108,0
Samarqand tumani	62 916,1	104,4
Nurobod tumani	14 825,8	109,7
Urgut tumani	159 798,5	100,1
Toyloq tumani	106 831,0	103,5



Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Bulung'ur tumani (22,1 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Urgut (11,3 %), Kattaqo'rg'on (9,6 %), Payariq (9,4 %), Jomboy (7,9 %) va Pastdarg'om (7,9 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (0,0 %), Samarqand shahri (0,3 %) va Qo'shrabot tumanida (1,0 %) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Kattaqo'rg'on tumani (176,8 %), Nurobod tumani (109,7 %), Paxtachi tumani (108,0 %), Pastdarg'om tumani (107,6 %), Oqdaryo tumani (105,6 %), Qo'shrabot tumani (105,6 %) va Samarqand tumanida (104,4 %) qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-oktabr holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 741,3 ming boshga yetdi, (2024-yilning 1-oktabr holatiga nisbatan 1,2 % ga ko'p), sigirlar 741,7 ming boshga (0,5 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 653,9 ming boshga (0,5 % ga ko'p), parrandalar 15 647,4 ming boshga (15,2 % ga ko'p) yetdi.

2025-yilning 1-oktabr holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 741,3	101,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	111,9	107,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 620,2	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,2	111,7
shundan sigirlar	741,7	100,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	51,3	112,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	687,1	99,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,3	109,2
Qo'y va echkilar	2 653,9	100,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	257,5	107,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 254,6	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	141,8	92,8
Otlar	30,8	103,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5,7	111,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	24,0	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,1	124,2
Parrandalar	15 647,4	115,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6 174,5	118,7

dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 741,6	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 731,3	140,7

2025-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,4 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 6,9 % fermer xo'jaliklariga, 92,6 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,5 % ni qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarining umumiy sonidan 9,7 % fermer xo'jaliklariga, 85,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,3 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 39,5 % fermer xo'jaliklariga, 36,7 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 23,8 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2025-yilning 1-oktabr holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Samarqand viloyati	1 741,3	2 653,9	15647,4
Samarqand shahri.	7,1	7,0	319,6
Kattaqo'rg'on shahri	7,4	7,1	20,7
Oqdaryo tumani	89,1	45,5	927,2
Bulung'ur tumani	116,7	158,2	840,0
Jomboy tumani	133,8	142,2	1464,5
Ishtixon tumani	146,0	108,9	857,2
Kattaqo'rg'on tumani	159,0	181,7	1390,6
Qo'shrabot tumani	116,9	426,0	642,9
Narpay tumani	113,5	86,2	434,4
Payariq tumani	118,0	123,7	558,4
Patdarg'om tumani	207,0	178,6	857,2
Paxtachi tumani	104,8	216,9	327,0
Samarqand tumani	56,2	151,6	3604,0
Nurobod tumani	84,9	644,4	515,4
Urgut tumani	192,1	117,7	658,3
Toyloq tumani	88,7	58,3	2230,1

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot etishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan er uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa er uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun etishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida erga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
Z. Ergashev
66 235-22-01 (3111)

Manzil:
Samarqand shahar Ulug'
Tursunov ko'chasi 82 uy
